Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	724
Quldashev Murodjon G'aniyevich	
Bugungi voleybolda to'p uzatish texnikasi va aniqligini 13–14 yoshdan boshlab aylanish harakatlari ta'sirida shakllantirish afzalligi	727
Rejapov O'tkirbek G'ayratjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatishda tolerantlikni rivojlantirishning metodik usullari va texnologiyalari.....	733
Ro'ziboyeva Madina Salimovna	
Pedagogik muloqot tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	737
Ro'zimatova Maxpuza	
Intellektual qadriyatlarning talaba yoshlar aksiologik hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli	743
Rustam Latipov Mamadaliyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari	747
Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi.....	754
Savutova Malohat Erkinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari.....	770
Sultanova N. B.	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni.....	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni	787
<i>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</i>	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
<i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулахадова Шохид</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Мaktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	



FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONANING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK MALAKALARI

Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi
University of Business and Science
oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ota-onalarning pedagogik va psixologik malakasini oshirishning dolzarbligi, uni rivojlantirish yo'llari hamda bu jarayonning bola rivojlanishiga ta'siri kabi muhim masalalar yoritilgan. Ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari farzand tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday malakaga ega bo'lgan ota-onalar farzandlarining rivojlanishini to'g'ri yo'naltira oladi, ularning ehtiyojlarini tushunadi, o'zaro munosabatlarni yaxshilaydi va muammolarni samarali hal qiladi. Ota-onalar o'z pedagogik va psixologik malakalarini muntazam ravishda oshirib borish orqali farzandlarining baxtli kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratishlari mumkin.

Kalit so'zlar: farzand tarbiyasi, pedagogik malaka, psixologik malaka, hissiy barqarorlik, shaxsiyat, nizolar, xavfsizlik tuyg'usi.

Abstract: This article highlights important issues such as the relevance of improving parents' pedagogical and psychological skills, the ways to develop them, and their impact on child development. The pedagogical and psychological skills of parents play a crucial role in child rearing. Parents who possess these skills can properly guide their children's development, understand their needs, improve relationships, and effectively solve problems. By continuously improving their pedagogical and psychological competencies, parents can create a strong foundation for their children's happy future.

Key words: child rearing, pedagogical skills, psychological skills, emotional stability, personality, conflicts, sense of security.

Аннотация: В данной статье освещаются такие важные вопросы, как актуальность повышения педагогических и психологических навыков родителей, пути их развития и влияние на развитие ребёнка. Педагогические и психологические навыки родителей играют значительную роль в воспитании детей. Родители, обладающие этими навыками, способны правильно направлять развитие своих детей, понимать их потребности, улучшать взаимоотношения и эффективно решать проблемы. Регулярно совершенствуя свои педагогические и психологические навыки, родители могут создать прочный фундамент для счастливого будущего своих детей.

Ключевые слова: воспитание детей, педагогическое мастерство, психологические навыки, эмоциональная устойчивость, личность, конфликты, чувство безопасности.

KIRISH

Dunyo integratsiyalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida ijtimoiy munosabatlardagi global o'zgarishlar oila instituti, uning mavqei, tarkibi, tuzilishi, funksiyasi, vazifalari va faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugun ko'plab rivojlangan mamlakatlarda oila an'analariga, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarga yondashuv keskin o'zgarayotgani natijasida ota-ona qaramog'isiz qolayotgan farzandlar soni ortib bormoqda. Shu bois, butun dunyoda oila manfaatlarini kafolatlarini yangi mazmunda ta'minlashning institutsional asoslarini takomillashtirish zaruratga aylanmoqda. Shunday ekan, farzand tarbiyasi kontekstida ota-ona fenomenini kompleks o'rganish, ularning hali yetarli darajada tadqiq qilinmagan ijtimoiy va etnopsixologik jihatlarini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. ^[1]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek mentalitetida oila ma'naviyati va madaniyati asrlar davomida o'ziga xos tarzda shakllangan. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik kabi fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Olimlarning ta'kidlashicha, bolaning ota-onasi bilan erta shakllangan munosabatlari xarakteri hamda ularning o'zaro bog'liqlik sifati o'smirlik davridagi hissiy holati va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bola tug'ilishining dastlabki onlaridanoq ona va




bola o'zaro emotsional va psixologik jihatdan bog'langan bo'lib, bolaning o'zini anglashi aynan ana shu hissiy ilqlikka bevosita bog'liqdir. Bola ulg'aygan sari ular o'rtasidagi psixologik masofa ortib boradi, simbioz munosabatlar asta-sekin aqliy-kognitiv aloqalarga aylanadi, ya'ni bolada o'zi haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga turtki bo'luvchi ijtimoiy omillar ko'lamini kengayadi.

Ota-onaning pedagogik va psixologik malakalari farzand tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, bolaning jismoniy, ruhiy va ma'naviy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy jamiyatda farzand tarbiyasi nafaqat oilaning, balki keng jamoatchilik va davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida qaraladi. [2] Bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy muhitda o'zini erkin his qilishi, dunyoqarashining to'g'ri rivojlantirish ota-onaning pedagogik va psixologik savodxonligi bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalaridagi o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining jadal taraqqiyoti hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilayotgan yangi talablar ota-onaning pedagogik va psixologik malakasini muntazam ravishda rivojlantirib borish zarurligini ko'rsatmoqda. Farzandni ma'naviy jihatdan boy, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy faol shaxs qilib tarbiyalash uchun ota-ona zamonaviy tarbiya usullari va bolalar psixologiyasi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. [3]

Ota-onaning pedagogik malakasi – farzand tarbiyasida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlar majmuasi bo'lib, bolaning shaxsiy rivojlanishi, axloqiy-estetik qadriyatlarini va ijtimoiy adaptatsiyasi uchun to'g'ri hamda samarali tarbiya jarayonini ta'minlash qobiliyatini ifodalaydi.



1-rasm: Ota-onaning pedagogik malakalari



2-rasm: Pedagogik malakalarning bolaning rivojlanishiga ta'siri



Pedagogik malakaning asosiy jihatlari: bolaning signallari (ochlik, charchoq, noqulaylik)ni to'g'ri anglash va unga sezgirlik bilan munosabatda bo'lish; har bir harakat va munosabat orqali bolaga mehr, tayanch va xavfsizlik tuyg'usini taqdim etish; tarbiyaning ilk bosqichlariga (masalan, to'g'ri uxlash, ovqatlanish, gigiyena odatlarini shakllantirish) izchil va mo'tadil yondashish; bola bilan suhbatlashish, ovoz orqali uning hissiy va kognitiv rivojlanishini rag'batlantirish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oilada farzand tarbiyasi ota-onaning psixologik malakalariga bevosita bog'liq. Ota-ona farzandining ruhiy va hissiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ularning psixologik tayyorgarligi, hissiy barqarorligi va tarbiya jarayonidagi mahorati katta ahamiyatga ega. Bolalar hayotining ilk bosqichlaridanoq ota-onasining hissiy holatini, muloqot uslubi va tarbiya jarayonidagi yondashuvlarini kuzatib, o'z shaxsiyatini shakllantiradi. Agar ota-ona mehribon, sabrli va tushunuvchi bo'lsa, farzand ham ishonchli, muvozanatli va moslashuvchan shaxs bo'lib voyaga yetadi. Aksincha, stress, jahl va beparvolik muhitida ulg'aygan bola kelajakda ijtimoiy moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ota-onaning ruhiy barqarorligi va psixologik savodxonligi oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, farzandni to'g'ri tarbiyalash hamda unga qulay psixologik muhit yaratishda muhim rol o'ynaydi. Bolaning his-tuyg'ulariga e'tibor qaratish, uni hurmat qilish, mehr bilan tinglash va hissiy ehtiyojlarini qondirish ota-onaning eng muhim vazifalaridan biridir. Har bir bola o'zini tushunilgan va qabul qilingan his qilishi kerak, shunda u o'z qadr-qimmatini anglaydi va jamiyatda o'z o'rnini topadi. Shu sababli ota-onalar nafaqat ta'lim va intizom masalalariga, balki farzand bilan hissiy yaqinlik, g'amxo'rlik va to'g'ri muloqot o'rnatishga ham alohida e'tibor qaratishlari lozim ^[4].

Ota-ona o'z hissiyotlarini boshqarishi kerak. Agar ota-ona stress holatida bo'lsa, bu bola ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Aksincha, hissiy jihatdan barqaror ota-ona bolaning o'zini xavfsiz his etishiga yordam beradi. Hissiy barqaror ota-onaning fazilatlarlari:

- sabrli va mehribon bo'lish – farzand bilan xotirjam, tinch va e'tiborli muloqotda bo'lish;
- oilaviy mojarolarni oqilona hal qilish – jahl bilan emas, balki tushunish va muloqot orqali muammolarni bartaraf etish;
- bola his-tuyg'ulariga e'tibor berish – bolaning ichki kechinmalarini tushunishga harakat qilish;
- stressni boshqara olish – asabiy holatda bolaga baland ovozda gapirmaslik va keskin munosabat bildirmaslik.

Farzand tarbiyasida hissiyotlarni tushunish va hamdardlik qila olish katta ahamiyatga ega. Bola o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda etishi uchun ota-onaning uni tinglashi, tushunishi va e'tibor berishi muhimdir.

Ota-onaning his-tuyg'ularni tushunish usullari:

1-mashq "His-tuyg'ular bo'yicha suhbatlar."

Kun oxirida bola o'z hissiyotlarini ochiq aytishi uchun qulay muhit yaratish kerak. Bu suhbat uchun alohida vaqt ajratilib, ota-ona shaxsiy va kasbiy ishlardan bo'sh paytida telefonga yoki televizorga chalg'imasdan, farzandi bilan 10–15 daqiqa suhbatlashishi tavsiya etiladi. Birga shirinlik bilan choy ichish yoki sayr qilish foydali. Suhbat davomida "bugungi kuning qanday o'tdi?" kabi savollar berish mumkin.

Misol uchun:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bugun nimalarni o'rganding?
2. Qanaqa o'yinlar o'ynading? Nimasi yoqdi yoki yoqmadi?
3. Nima ovqat yeding? Ta'mi qanday edi?
4. Yana nimalar qilding? O'sha paytda jahling chiqdimi?
5. Yiqilib tushganda qo'rqdingmi? Xafa bo'ldingmi? Seni tushunaman...
6. Seni juda yaxshi ko'raman.

2-mashq "Ranglar orqali his-tuyg'ularni tushunish."

Bola kayfiyatini ranglar bilan ifodalasa, uni chuqurroq tushunish mumkin. Masalan:

1. Rangli kartochkalardan o'zingga eng yoqqanini tanla.
2. Qanday chiroyli rang! Bu rangning nomi nima edi?
3. Senga shu rang yoqadimi? Qayerda bu rangni ko'rgansan?
4. Bu rangga qaraganda nimalarni his qilasan?



Muloqot ota-ona va bola o'rtasidagi asosiy bog'lovchi vosita bo'lib, bolaning ruhiy hamda hissiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Farzandning o'zini qulay, tushunilgan va qadrlangan his qilishi ota-onaning muloqot madaniyatiga bog'liq. Ota-ona bolasi bilan ochiq, samimiy va tushunarli muloqotda bo'lsa, bola o'z fikrini bemalol bayon qilishi, his-tuyg'ularini tushunishi va boshqarishi osonlashadi.

Muloqot faqat so'z orqali emas, balki tana tili (mimika, imo-ishora) va hissiyotlar orqali ham amalga oshadi. To'g'ri muloqot uchun ota-onadan quyidagi ko'nikmalar talab qilinadi:

- **Tinglash:** bolaning so'zini bo'lmaslik, ko'ziga qarab tinglash, tanqid qilmaslik, "ha", "tushunarli" kabi so'zlar bilan tasdiqlash, gaplarini qaytarib tushunganini ko'rsatish.
- **Bolaning hissiyotlarini aks ettirish:** masalan, bola xafa bo'lsa, "senga qiyin bo'layotganini tushunib turibman", deb aytish.
- **Rag'batlantirish:** "sen juda yaxshi harakat qilding!", kabi so'zlar bolaning o'ziga ishonchini oshiradi.
- **Tushuntirish:** bola bilan sodda, aniq tilda gaplashish, tanqid o'rniga yo'l-yo'riq ko'rsatish. Masalan, "Sen dangasa ekansan" o'rniga "Ko'proq harakat qilsang, yaxshi natijaga erishasan" deyish.

Sabrli ota-ona farzandi bilan tushunarli, mehribon va murosali muloqotda bo'ladi. Chunki bolaning o'sishi va rivojlanishi vaqt talab qiladi. Shu sababli, ota-onalar har bir xatoni sabr bilan qabul qilishlari kerak.

Oilada nizolar bo'lishi tabiiy. Bu holat bolaning ruhiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini ota-onaning nizolarni boshqarish qobiliyati belgilaydi. Ota-onaning nizolarni boshqarish mahorati bola bilan to'g'ri muloqot qilish, muammolarni tinch yo'l bilan hal etish, hissiyotlarni boshqarish va o'rnak ko'rsatishdan iborat. Nizolarni boshqarish qobiliyatiga ega ota-ona bolani tushunadi, his-tuyg'ularini inobatga oladi, kelishuv orqali muammoni hal etishga undaydi. Bu bolaning o'ziga ishonchi va stressni boshqarish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ko'nikmalar tinglash, hissiyotlarni boshqarish, kelishuvga erishish, to'g'ri muloqot va qayta tushuntirishni o'z ichiga oladi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning yana bir muhim vazifasi – bolani hayotda aniq maqsad qo'yishga o'rgatish va unga erishish uchun motivatsiya berishdir. Maqsadsiz hayot kechirish bolada ishonchsizlik, ruhiy tushkunlik va beqarorlikka olib keladi. Ota-ona bolaning imkoniyatlarini hisobga olib, real va aniq maqsad qo'yishga yordam berishi kerak. Bola kichik muvaffaqiyatlarga erishganda uni rag'batlantirish, qiziqqan mashg'ulotlariga e'tibor qaratish, qiyinchiliklarga duch kelganda esa muammoni hal qilishni sodda tushuntirish zarur. Bola ota-onasiga taqlid qiladi, shuning uchun ota-ona o'zi ham mehnatsevar, mas'uliyatli va intiluvchan bo'lishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Farzandni tarbiyalash har bir ota-onaning muqaddas burchidir. Biroq, ko'plab ota-onalar o'z farzandlariga to'g'ri ta'lim-tarbiya bera olish uchun yetarli pedagogik va psixologik bilimga ega emaslar. Buning natijasida ular turli xatolarga yo'l qo'yib, farzandlarining ma'naviy va ruhiy rivojlanishiga zarar yetkazishlari mumkin. Quyida ota-onalarda eng ko'p uchraydigan pedagogik-psixologik xatolar, ularning sabab va oqibatlari hamda bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

Ba'zi ota-onalar farzandlarini boqish, ularning moddiy ehtiyojlarini qondirishni o'zining yagona vazifasi deb biladi. Aslida esa tarbiya faqat moddiy jihatdan ta'minlash bilangina cheklanmay, mehr, e'tibor va axloqiy tarbiya ham o'z ichiga oladi. Moddiy ta'minot borasida hech qanday muammo bo'lmasa-da, bolaga yetarlicha mehr berilmasligi uni ruhiy va hissiy qiyinchiliklarga duch keltirishi mumkin.

Ba'zan ota-onalar oilada axloqsiz turmush tarzini olib boradilar. Qo'pol muomala, ichkilikbozlik, betartib hayot kechirish va odobsizlik farzandning shaxsiyati rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Farzand oiladagi muhitdan bevosita ta'sirlanadi va bu holat uning kelajakdagi hayotida ham aks etadi. Ko'pincha ota-onalar farzandlariga nasihat qilishadi, lekin o'zlari unga amal qilmaydilar. Masalan, "Yolg'on gapirma", deb o'rgatib, o'zlari doim yolg'on gapirsa, bola bunday nasihatga ishonmaydi va ota-onaning so'zlari uning nazarida ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Ba'zi ota-onalar bolalarini buyruq va minnat orqali tarbiyalashga harakat qiladilar. "Men seni boqaman, sen menga rahmat aytishing kerak", "Men seni o'qityapman, shuning uchun hamma gapimga quloq sol", kabi gaplar bolaning o'zini aybdor his qilishiga olib keladi.

Ba'zan ota-onalar bandlik sababli farzandlariga yetarlicha vaqt ajratmaydilar. Ularning qiziqishlariga befarq bo'lish, hayotidagi muhim voqealarga e'tiborsizlik va muloqot yetishmovchiligi bola bilan ota-ona o'rtasidagi hissiy bog'liqlikni yo'qotadi. Ba'zi ota-onalar farzandlarini faqat o'qishga yo'naltirib, ularni uy ishlaridan butunlay ozod qiladilar. Bu esa ularda mas'uliyat hissining shakllanmasligiga olib keladi. Bolalarni yoshiga mos ravishda uy yumushlariga jalb qilish lozim. Masalan, 3–5 yoshdagi bolalar o'yinchoqlarini yig'ishtirishni o'rganishi, 6–8 yoshdagilar esa o'z kiyimlarini tartibga keltirishda yordam berishi mumkin. Bu ularni mas'uliyatli va o'zgalar mehnatini hurmat qilishga o'rgatadi. Har bir bola o'z yoshiga mos bo'lgan alohida rivojlanish bosqichlariga ega.



Ba'zi ota-onalar esa bolalaridan ularning yoshiga mos kelmaydigan narsalarni talab qiladilar yoki aksincha, ularni ortiqcha erkalatib, mustaqillikni berishmaydi. Bolalar ota-onalarning so'zlaridan ko'ra ularning harakatlari o'rganadilar. Agar ota-ona bir narsani talab qilib, o'zi unga amal qilmasa, bola ularga ishonmay qo'yadi.

Oilada ota va ona farzand tarbiyasiga turlicha yondashsa, bola chalkashib qoladi va ota-onaning talablarini jiddiy qabul qilmaydi. Kundalik hayotda tartib-intizom bo'lmasa, bola vaqtini noto'g'ri taqsimlashni o'rganadi va beqaror hayot kechiradi. Ayrim ota-onalar farzandlarini haddan tashqari jazolaydilar yoki aksincha, har qanday ishini ortiqcha maqtaydilar. Bu tarbiyada muvozanatning buzilishiga olib keladi. Ota-onaning kayfiyati farzandlar bilan muloqotda katta ahamiyatga ega. Agar ota-ona yomon kayfiyatda bo'lsa, farzandlar bu holatni darhol sezishadi va bu muloqotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyaviy jarayonni boshlashdan oldin ota-onalar o'z kayfiyatini nazorat qilib, muammolarni hal etishda ijobiy yondashuvni tanlashlari kerak. Tarbiyaviy vazifalarni bajarishda xotirjamlik, yaxshi kayfiyat va ijobiy munosabat farzandlar bilan samarali muloqot o'rnatishga yordam beradi. Agar ota-ona yomon kayfiyatda bo'lsa, farzandlariga jiddiy tushuntirish berishdan avval biroz dam olish va keyin muloqotni boshlash tavsiya etiladi [6]. Ota-onaning pedagogik va psixologik malakalari farzand tarbiyasida muhim omillardan biri hisoblanadi. Bola ilk hayotiy tajribalarini ota-onasi orqali oladi, shaxsiy xususiyatlarini shakllantiradi va jamiyatda o'z o'rnini topadi. Shu bois, ota-onaning pedagogik va psixologik savodxonligi bolaning aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik malaka ota-onaning farzandiga ta'lim berish, uning qobiliyatlarini rivojlantirish va uni mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi, mantiqiy tafakkuri va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining shakllanishida ota-onaning o'zni beqiyosdir. Erta yoshdan bolaning bilim olish jarayoniga e'tibor qaratish, uni mustaqil o'rganishga undash va qiziqarli ta'lim usullaridan foydalanish ota-onaning pedagogik mahoratini namoyon etadi. Psixologik malaka esa ota-onaning farzandi bilan to'g'ri muloqot o'rnatishi, uning hissiyotlarini tushunishi va bolaga xavfsiz muhit yaratishi bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, farzandning ruhiy barqarorligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va stressga bardoshliligi ota-onaning sabr-toqati, mehribonligi va hissiy qo'llab-quvvatlashi orqali shakllanadi. Ota-onalar bolalariga e'tibor qaratib, ularning his-tuyg'ularini inkor etmasdan qabul qilishlari muhim. Tarbiyada tez-tez uchraydigan xatolar ota-onaning pedagogik va psixologik bilimlari yetarli emasligidan kelib chiqadi. Bolaning qobiliyatlarini e'tiborsiz qoldirish, unga haddan tashqari talab qo'yish yoki ortiqcha erkinlik berish, qattiqqo'llik va ruhan bosim o'tkazish uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Farzandni boshqa bolalar bilan solishtirish, u bilan faqat buyruq ohangida gaplashish va hissiy kechinmalariga e'tiborsiz bo'lish ota-onaning eng katta tarbiyaviy xatolaridandir. Bolani tarbiyalashda ota-onalar izchil yondashuvni qo'llashlari, uning yoshiga mos talablar qo'yishlari hamda har bir xatodan saboq olishiga imkon yaratishlari lozim. Bola o'z qadr-qimmatini his qilish, mustaqil fikrlash va jamiyatda o'z o'rnini topish uchun oilada ijobiy muhit shakllantirilishi zarur. Tarbiyaviy jarayonda sabr, mehr, to'g'ri muloqot va o'zaro ishonch asosiy mezonlar bo'lishi kerak. Farzand tarbiyasi murakkab, ammo sharaflı jarayondir. Ota-onalar farzandlarining hayotida eng asosiy ustoz, eng katta motivator va eng yaqin do'st bo'lishlari lozim. Ularning sabr-toqati, mehr-muhabbati va tarbiyaga to'g'ri yondashuvi bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlarining poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Обухов Я.Л. Значение первого года жизни для последующего развития ребенка // Обзор концепции Винникота Д., 1997. – 216 с.
2. Shamsiyev O'.B. Bolaning o'zini-o'zi anglash muammosi. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Tafakkur" nashriyoti, 2012. – 48-bet.
3. Shamsiyev O'.B. Oilaviy holding – bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi. Monografiya. TKTİ, Toshkent: Navro'z, 2018. – 124-bet.
4. Madaminova G'.B. Farzand tarbiyasida ota-onaning roli // Science and Education Scientific Journal. Impact Factor – 3,848 (SJIF). February 2023, Volume 4, Issue 2. – B. 978–980.
5. Berdiyeva D.R. Farzand tarbiyasida ota-onaning roli // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. SJIF 2022. – B. 1043–1049.
6. Z. Mahkamova, M. Quronov, X. Abdurahmonov. Mas'uliyatli ota-onalik. "Mahalla va oila", Toshkent, 2024.
7. <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/2999>
8. <https://zenodo.org/records/15087278>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.